TASHQI SAVDO BALANSINI MUVOZANATLASHTIRISH	831
Rahimov Eshmurod Normurodovich, Misliddinov Ikromjon Kamoliddin o'g'li	
DON VA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING YEVROPA TAJRIBASI	837
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li	
RAQAMLI SUG'URTA (INSURTECH) EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	842
Nozimov Eldor Anvarovich	
MAHALLIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ASOSIDA IMPORT O'RNINI BOSUVCHI MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH STRATEGIYASI	847
Sobitova Ra'no Solidjonovna	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBALARI.....	850
Raxmonov Aziz Iskandarovich	
COST ANALYSIS IN FRUIT AND VEGETABLE PROCESSING PLANTS.....	855
Rahmatullayev Mirjalol Khatam ogli	
OLIY TA'LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH TIJORAT SIRINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	861
Butayev Dilshod Eshbekovich	



OLIY TA'LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH TIJORAT SIRINING O'ZIGA XOS JIHATLARI



Butayev Dilshod Eshbekovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot oliy ta'lim xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish hamda ushbu jarayonda tijorat sirini himoya qilishning o'ziga xos jihatlari o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda oliy ta'lim muassasalarining bozor munosabatlariga moslashuvi, ularning moliyaviy-iqtisodiy mustaqilligining mustahkamlanishi hamda innovatsion faoliyat ko'lamining kengayishi sharoitida tijorat siri tushunchasining mazmuni va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida tijorat sirini himoya qilishning tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy va raqamli mexanizmlari tizimli yondashuv asosida kompleks baholandi hamda amaliyotda uchraydigan dolzarb masalalar aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tijorat sirini himoya qilishning samarali tizimini joriy etish oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish, ilmiy ishlanmalarni samarali tijoratlashtirish hamda investitsion jozibadorligini yanada kuchaytirishga xizmat qilishi ilmiy asoslab berildi.

Olingan xulosalar va ishlab chiqilgan amaliy takliflar oliy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish strategiyasini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim xizmatlari, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, tijorat siri, axborot xavfsizligi, oliy ta'lim muassasalari, raqobatbardoshlik, innovatsion faoliyat, intellektual mulk, tijoratlashtirish, strategik boshqaruv.

Abstract. This study is devoted to improving the organizational and economic mechanisms for the development of higher education services and examining the specific aspects of trade secret protection within this process. The research analyzes the content and significance of the trade secret concept in the context of higher education institutions' adaptation to market conditions, strengthening of their financial and economic independence, and expansion of innovative activities.

Furthermore, the organizational, legal, economic, and digital mechanisms for trade secret protection in higher education institutions were comprehensively evaluated based on a systematic approach, and key practical issues were identified. The findings demonstrate that implementing an effective trade secret protection system contributes to enhancing the competitiveness of higher education institutions, facilitating the commercialization of scientific developments, and strengthening their investment attractiveness.

The conclusions and practical recommendations developed in the study have significant scientific and practical importance for improving the strategic development of higher education services.

Key words: higher education services, organizational and economic mechanisms, trade secrets, information security, higher education institutions, competitiveness, innovative activities, intellectual property, commercialization, strategic management.



Аннотация. Данное исследование посвящено совершенствованию организационно-экономических механизмов развития услуг высшего образования, а также изучению специфических аспектов защиты коммерческой тайны в данном процессе. В работе научно обоснованы содержание и значение концепции коммерческой тайны в условиях адаптации высших учебных заведений к рыночной среде, укрепления их финансово-экономической самостоятельности и расширения инновационной деятельности.

Кроме того, на основе системного подхода проведена комплексная оценка организационных, правовых, экономических и цифровых механизмов защиты коммерческой тайны в высших учебных заведениях, а также выявлены актуальные вопросы практического характера. Результаты исследования показывают, что внедрение эффективной системы защиты коммерческой тайны способствует повышению конкурентоспособности высших учебных заведений, эффективной коммерциализации научных разработок и укреплению их инвестиционной привлекательности.

Полученные выводы и разработанные практические рекомендации имеют важное научно-практическое значение для совершенствования стратегии развития услуг высшего образования.

Ключевые слова: услуги высшего образования, организационно-экономические механизмы, коммерческая тайна, информационная безопасность, высшие учебные заведения, конкурентоспособность, инновационная деятельность, интеллектуальная собственность, коммерциализация, стратегическое управление.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimi mamlakatning intellektual salohiyatini rivojlantirish, innovatsion taraqqiyotni jadallashtirish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim strategik omillardan biri hisoblanadi. Oliy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish jarayonida ta'lim muassasalarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va boshqaruv samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, axborot xavfsizligini ta'minlash hamda tijorat sirini ishonchli himoya qilish masalalari alohida dolzarblik kasb etmoqda [1].

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari nafaqat ta'lim beruvchi institut, balki ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshiruvchi, innovatsion loyihalarni ishlab chiquvchi, startup tashabbuslarini qo'llab-quvvatlovchi hamda konsalting xizmatlarini ko'rsatuvchi mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida faoliyat yuritmoqda. Ushbu jarayonda ta'lim xizmatlariga oid biznes-rejalar, o'quv dasturlari, ilmiy ishlanmalar, grant loyihalari, moliyaviy hisob-kitoblar hamda strategik boshqaruvga oid ma'lumotlar muhim iqtisodiy qiymatga ega bo'lgan axborotlar sifatida alohida muhofazani talab etadi.

Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'lim xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida tijorat sirini himoya qilishning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur ilmiy asosda o'rganish, mavjud mexanizmlarni tahlil qilish hamda ularni yanada samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim xizmatlari bozorini shakllantirish hamda sog'lom raqobat muhitini rivojlantirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Mazkur islohotlar oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy mustaqilligini oshirish, innovatsion faoliyatini kengaytirish hamda ularning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, tijorat sirini himoya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, axborotlardan foydalanish tartiblarini aniq belgilash va boshqaruv jarayonlarida risklarni samarali baholash tizimini rivojlantirish oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy manfaatlarini yanada mustahkamlash imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'lim xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida tijorat sirini himoya qilishning nazariy asoslari, tashkiliy-huquqiy shakllari hamda iqtisodiy samaradorligini ta'minlovchi omillarni kompleks tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur masalani chuqur o'rganish oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish, intellektual mulkni ishonchli muhofaza qilish hamda ularning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ye.S. Vershinina va M.P. Sherbakovalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda tijorat sirining mazmuni, uning o'ziga xos xususiyatlari, himoya qilish mexanizmlari hamda tashkilot faoliyatini samarali boshqarishda tijorat sirining ahamiyati batafsil yoritilgan. Mualliflar tijorat sirini himoya qilish tizimini takomillashtirish tashkilotning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va uning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanishini ta'kidlaganlar [2].

Ilmiy adabiyotlarda tijorat siri tashkilot uchun muhim iqtisodiy qiymatga ega bo'lgan va maxfiylik rejimi asosida muhofaza qilinadigan axborot sifatida talqin etiladi. Bunday axborotlar tarkibiga texnologik ishlanmalar,



biznes-rejalar, ishlab chiqarish usullari, mijozlar bazasi, marketing strategiyalari, moliyaviy ma'lumotlar hamda tashkilot faoliyatining samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa muhim ma'lumotlar kiradi.

Tijorat sirining asosiy xususiyati uning maxfiyligi va iqtisodiy qiymati bilan belgilanadi. Mazkur ma'lumotlarga faqat tegishli vakolatga ega bo'lgan shaxslar doirasida kirish imkoniyati ta'minlanadi, bu esa axborot xavfsizligini mustahkamlash va tashkilot manfaatlarini samarali himoya qilishga xizmat qiladi. Tijorat sirini ishonchli himoya qilish tizimi tashkilotning innovatsion salohiyatini saqlash, uning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash hamda uzoq muddatli rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot oliy ta'lim xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish hamda ushbu jarayonda tijorat sirini himoya qilishning o'ziga xos jihatlari aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda kompleks va tizimli yondashuv asosiy metodologik asos sifatida tanlandi. Tadqiqot jarayonida oliy ta'lim muassasalari faoliyatini mustaqil iqtisodiy subyekt sifatida baholash, ularning boshqaruv, moliyaviy va axborot resurslarini himoya qilish mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilishga alohida e'tibor qaratildi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi sifatida iqtisodiyot nazariyasi, ta'lim iqtisodiyoti, institutsional iqtisodiyot, strategik boshqaruv, shuningdek, axborot xavfsizligi va tijorat sirini himoya qilish nazariyalariga oid zamonaviy ilmiy yondashuvlar xizmat qildi. Xususan, oliy ta'lim xizmatlari bozorida raqobat muhitini shakllantirish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning samaradorligini baholash hamda tijorat sirini himoya qilishning institutsional mexanizmlarini rivojlantirishga oid konseptual yondashuvlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida oliy ta'lim xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari hamda tijorat sirini himoya qilish amaliyoti tizimli ravishda tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijalari shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim muassasalarining (OTM) bozor munosabatlariga faol integratsiyalashuvi ularning iqtisodiy mustaqilligini sezilarli darajada oshirgan bo'lsa-da, axborot xavfsizligi va tijorat sirini himoya qilish bilan bog'liq boshqaruv vazifalarining dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda.

Birinchidan, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar tahlili natijalariga ko'ra, aksariyat oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy rejalashtirish, kontrakt asosidagi tushumlarni boshqarish, grant mablag'lari hamda xo'jalik shartnomalari asosida olinadigan daromadlarni taqsimlash jarayonlari yetarli darajada reglamentlashtirilmaganligi aniqlandi. Natijada strategik ahamiyatga ega bo'lgan moliyaviy va boshqaruv axborotlarining ochiqlik darajasi yuqori darajada shakllanib, tijorat siri sifatida himoya qilinishi zarur bo'lgan ma'lumotlarning nazoratsiz tarqalish ehtimolini oshiruvchi omillar yuzaga kelmoqda.

Ikkinchidan, tijorat sirini himoya qilishning tashkiliy jihatlari tahlili shuni ko'rsatdiki, ko'plab oliy ta'lim muassasalarida tijorat siriga oid ichki normativ hujjatlar mavjud bo'lishiga qaramay, ularning amaliy ijrosi yetarli darajada samarali tashkil etilmagan. Xususan, xodimlar bilan tuziladigan mehnat shartnomalarida axborot maxfiyligini ta'minlashga oid bandlarning umumiy xarakterga ega ekanligi hamda axborotlardan foydalanish darajalari (access levels) aniq differensiallashmaganligi inson omili bilan bog'liq axborot xavfsizligi risklarining saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Uchinchidan, iqtisodiy tahlil natijalari oliy ta'lim muassasalarida tijorat sirini himoya qilishga yo'naltirilgan investitsiyalar va ularning iqtisodiy samaradorligi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Jumladan, axborot xavfsizligi infratuzilmasiga, raqamli boshqaruv platformalariga, ma'lumotlarni himoya qilish texnologiyalariga va ichki nazorat tizimlariga investitsiya kiritgan oliy ta'lim muassasalarida grant mablag'lari hajmining ortishi, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish darajasining oshishi hamda hamkor tashkilotlar bilan o'zaro ishonch darajasining mustahkamlanishi kuzatildi.

To'rtinchidan, xorijiy tajriba bilan o'tkazilgan qiyosiy tahlil natijalari rivojlangan mamlakatlar oliy ta'lim tizimida tijorat sirini himoya qilish kompleks institutsional mexanizm sifatida shakllanganligini ko'rsatdi. Xususan, intellektual mulkni boshqarish ofislari, texnologiyalar transferi markazlari hamda risk-menejment tizimlari tijorat sirini himoya qilishda muhim institutsional vosita sifatida faoliyat yuritmoqda. Milliy amaliyotda esa ushbu institutlarning faoliyatini rivojlantirish va ularni boshqaruv tizimiga integratsiya qilish zarurati saqlanib qolmoqda.

O'tkazilgan SWOT-tahlil natijalariga ko'ra, oliy ta'lim xizmatlarini rivojlantirishda kuchli jihatlari sifatida davlat tomonidan ko'rsatilayotgan tizimli qo'llab-quvvatlash hamda ta'lim xizmatlariga bo'lgan barqaror talab aniqlangan bo'lsa, zaif jihatlari qatoriga tijorat sirini himoya qilish mexanizmlarining institutsional jihatdan to'liq shakllanmaganligi hamda axborot xavfsizligi sohasidagi mutaxassislar salohiyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi kiritildi. Shu bilan birga, imkoniyatlar sifatida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi va xalqaro ilmiy-ta'lim hamkorligining kengayishi, tahdidlar sifatida esa global raqobat muhitining kuchayishi hamda axborot oqimlari hajmining ortishi bilan bog'liq boshqaruv vazifalarining murakkablashuvi qayd etildi.



O'tkazilgan tahlillar asosida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi. Birinchidan, oliy ta'lim xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida tijorat sirini himoya qilishni mustaqil boshqaruv obyekti sifatida ko'rib chiqish zarur. Ikkinchidan, oliy ta'lim muassasalarida axborot xavfsizligi va tijorat sirini himoya qilishga qaratilgan integratsiyalashgan ichki nazorat tizimini joriy etish ularning iqtisodiy samaradorligi va boshqaruv barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Uchinchidan, tijorat sirini himoya qilish mexanizmlarining takomillashtirilishi oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion faoliyatini rivojlantirish hamda investitsion jozibadorligini kuchaytirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval. Oliy ta'lim muassasalarida tijorat sirini qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari¹

№	Qo'llab-quvvatlash yo'nalishi	Imkoniyat mazmuni	Amalga oshirish mexanizmlari	Kutilayotgan natijalar
1	Tashkiliy imkoniyatlar	Tijorat sirini alohida boshqaruv obyekti sifatida shakllantirish	Ichki nizomlar, maxfiylik siyosati, mas'ul bo'linmalarni tashkil etish	Boshqaruv samaradorligi va axborot intizomi oshadi
2	Huquqiy imkoniyatlar	Tijorat sirini huquqiy jihatdan mustahkamlash	Mehnat shartnomalarida maxfiylik bandlari, NDA bitimlar	Axborot tarqalishi risklari kamayadi
3	Iqtisodiy imkoniyatlar	Tijorat sirini himoyalashga investitsiyalar jalb qilish	Axborot xavfsizligiga yo'naltirilgan byudjet, grantlar	Moliyaviy barqarorlik va daromadlar o'sadi
4	Raqamli imkoniyatlar	Axborotlarni raqamli himoyalash	Ma'lumotlarni shifrlash, kirish darajalarini cheklash (Access control)	Axborot xavfsizligi darajasi oshadi
5	Institutsional imkoniyatlar	Maxsus tuzilmalar orqali tijorat sirini boshqarish	Texnologiyalar transferi markazi, intellektual mulk ofisi	Innovatsion faoliyat faollashadi
6	Kadrlar salohiyati	Xodimlar va professor-o'qituvchilar malakasini oshirish	Treninglar, seminarlar, ichki audit	Inson omili bilan bog'liq xavflar kamayadi
7	Innovatsion imkoniyatlar	Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish	Startaplar, spin-off kompaniyalar	Intellektual mulkdan daromad olinadi
8	Hamkorlik imkoniyatlari	Xususiy sektor va xorijiy OTMlar bilan hamkorlik	Qo'shma loyihalar, konsalting xizmatlari	Raqobatbardoshlik va ishonch oshadi
9	Nazorat va monitoring	Tijorat siri ustidan ichki nazoratni kuchaytirish	Risk-menejment, ichki audit tizimi	Axborot yo'qotish holatlari kamayadi
10	Strategik imkoniyatlar	Tijorat sirini rivojlanish strategiyasiga integratsiya qilish	OTM strategik rejasiga kiritish	Barqaror va uzoq muddatli rivojlanish ta'minlanadi

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida tijorat sirini qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari ko'p qirrali bo'lib, ular tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy, raqamli va institutsional omillarning o'zaro uyg'unligi asosida namoyon bo'ladi. Xususan, tijorat sirini mustaqil boshqaruv obyekti sifatida shakllantirish va uni huquqiy jihatdan mustahkamlash axborot xavfsizligini ta'minlashning muhim institutsional asoslaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, iqtisodiy va raqamli imkoniyatlardan samarali foydalanish oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish jarayonlarini faollashtirish hamda grantlar va xo'jalik shartnomalari asosidagi daromadlar hajmini kengaytirishga xizmat qiladi. Jadvalda aks ettirilganidek, axborot xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan investitsiyalar hamda zamonaviy raqamli himoya vositalarini joriy etish tijorat sirining saqlanish darajasini oshirish va axborot xavfsizligini yanada mustahkamlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, kadrlar salohiyatini rivojlantirish, ichki nazorat va monitoring tizimlarini takomillashtirish inson omili bilan bog'liq boshqaruv risklarini samarali boshqarishga xizmat qiladi. Institutsional va strategik imkoniyatlarning mavjudligi esa tijorat sirini oliy ta'lim muassasasining umumiy rivojlanish strategiyasiga integratsiyalash orqali ularning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion faoliyatini faollashtirish va barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi. Umuman olganda, jadvalda keltirilgan imkoniyatlar tizimli yondashuv asosida amalga oshirilganda oliy ta'lim xizmatlarini rivojlantirishda muhim iqtisodiy va boshqaruv samaradorligini ta'minlaydi.

¹ Muallif ishlanmasi



O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida tijorat sirini himoya qilish masalasi strategik ahamiyat kasb etib, u oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligi, moliyaviy barqarorligi hamda innovatsion rivojlanish salohiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oliy ta'lim muassasalarining bozor munosabatlariga faol integratsiyalashuvi, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish jarayonlarining kengayishi hamda xususiy sektor bilan hamkorlik aloqalarining rivojlanishi tijorat siri sifatida muhofaza qilinishi zarur bo'lgan axborotlar hajmining ortib borishini taqozo etmoqda.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, amaldagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarda tijorat sirini himoya qilishga oid yondashuvlar bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda va ularni yagona integratsiyalashgan boshqaruv tizimi asosida yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud. Xususan, ichki normativ-huquqiy hujjatlarning amaliy ijrosini kuchaytirish, raqamli axborotlarni himoya qilish mexanizmlarini kengaytirish hamda xodimlarning axborot xavfsizligi bo'yicha kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish ushbu yo'nalishdagi samaradorlikni oshirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida namoyon bo'lmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar asosida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi: birinchidan, tijorat sirini himoyalash oliy ta'lim muassasalarida mustaqil va muhim boshqaruv obyekti sifatida qaralishi zarur, chunki u muassasaning iqtisodiy manfaatlari, innovatsion faoliyati va raqobatbardoshligini ta'minlovchi strategik resurs hisoblanadi; ikkinchidan, tijorat sirini muhofaza qilishga qaratilgan tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy mexanizmlar o'zaro integratsiyalashgan holda joriy etilgandagina ularning amaliy samaradorligini ta'minlash mumkin; uchinchidan, tijorat sirini samarali himoyalash oliy ta'lim muassasalarining investitsion jozibadorligini oshirish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishni faollashtirish hamda xalqaro hamkorlik aloqalarini kengaytirishda muhim institutsional omil sifatida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi ilmiy xulosalardan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Birinchidan, oliy ta'lim muassasalarida tijorat sirini himoyalash bo'yicha yagona ichki siyosat, reglament va standartlarni ishlab chiqish hamda ularni muassasaning uzoq muddatli strategik rivojlanish dasturlariga integratsiya qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu esa tijorat sirini boshqarish jarayonining tizimlilikini va barqarorligini ta'minlash imkonini beradi.

Ikkinchidan, axborot xavfsizligi va tijorat sirini muhofaza qilishga ixtisoslashgan mas'ul tarkibiy bo'linmalar yoki vakolatli mutaxassislar faoliyatini tashkil etish orqali ichki nazorat va monitoring mexanizmlarini institutsional jihatdan mustahkamlash zarur. Ushbu yondashuv axborot xavfsizligini boshqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, raqamli transformatsiya jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, xususan, ma'lumotlarni shifrlash tizimlarini joriy etish, foydalanuvchilarning kirish darajalarini aniq differensiallash hamda axborot tizimlarida audit izlarini (log) yuritish orqali tijorat sirining ishonchli himoyalanih darajasini yanada oshirish tavsiya etiladi.

To'rtinchidan, professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va boshqaruv apparati vakillari uchun tijorat siri va axborot xavfsizligi masalalariga bag'ishlangan muntazam o'quv-seminarlar, treninglar va malaka oshirish dasturlarini tashkil etish orqali inson omili bilan bog'liq xavflarni samarali boshqarish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Beshinchidan, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish jarayonida intellektual mulk obyektlarini huquqiy himoya qilish, texnologiyalar transferi mexanizmlarini rivojlantirish hamda innovatsion startup loyihalarni qo'llab-quvvatlash orqali tijorat siridan iqtisodiy samarali foydalanish tizimini takomillashtirish lozim.

Umuman olganda, taklif etilgan chora-tadbirlarni amaliyotga izchil tatbiq etish oliy ta'lim muassasalarida tijorat sirini himoyalash tizimini institutsional jihatdan mustahkamlash, ta'lim xizmatlari bozorida ularning barqaror rivojlanishini ta'minlash, raqobatbardoshligini oshirish hamda innovatsion faoliyat samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Вершинина Е.С., Щербакова М.П. Коммерческая тайна: понятие, условия обработки // Юридическая наука и практика: Вестник Нижегородской академии МВД России. – 2022. – № 1 (57). – С. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kommercheskaya-tayna-ponyatie-usloviya-obrabotki>
2. Железняк Н.С. О соотношении понятий «орган дознания» и «орган, осуществляющий оперативно-розыскную деятельность» // Вестник Сибирского юридического института МВД России. – 2018. – № 2 (31). – С. 28–32.
3. Астратова Г.В. Современные тенденции развития рынка услуг высшего образования // Вестник евразийской науки. – 2016. – № 4 (35). – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennye-tendentsii-razvitiya-rynka-uslug-vysshego-obrazovaniya>



4. Абдуллаева Ш.З. Олий таълим муассасаларида инновацион фаолиятни ривожлантириш масалалари // Иқтисодиёт ва таълим. – Тошкент, 2021. – №3. – Б. 45–52.
5. Юлдашев Н.Ж. Таълим хизматлари бозорида рақобат муҳитини шакллантириш. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2020. – 156 б.
6. Siegel D.S., Waldman D., Link A. Assessing the impact of organizational practices on the productivity of university technology transfer offices // Research Policy. – 2003. – Vol. 32. – pp. 27–48.
7. Debackere K., Veugelers R. The role of academic technology transfer organizations in improving industry science links // Research Policy. – 2005. – Vol. 34. – pp. 321–342.
8. Etzkowitz H., Leydesdorff L. The Triple Helix: University–Industry–Government Relations // Research Policy. – 2000. – Vol. 29. – pp. 109–123.
9. Friedman J., Silberman J. University technology transfer: Do incentives, management, and location matter? // Journal of Technology Transfer. – 2003. – Vol. 28. – pp. 17–30.
10. Rothaermel F.T., Agung S.D., Jiang L. University entrepreneurship: A taxonomy of the literature // Industrial and Corporate Change. – 2007. – Vol. 16. – pp. 691–791.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
